

# PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT)

2022 yil «3» 10

585-12-170-  
XT/2022-son

Bog'ot shaharchasi

Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan «Bog'ot tumani Xalq ta'limi bo'limi» nomidan nizom asosida ish yurituvchi, raxbari G.Raximova bir tomonidan, keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan Yangi Proekt MCHJ nomidan nizom asosida ish yurituvchi raxbari R.Bayjanov ikkinchi tomonidan Bog'ot tumani 32-son maktab binosini joriy tamirlash bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

## I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi;
  - ijro xujjalari – naturada bajarilgan ishlari yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'grisidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruktsiyalar va detallarning sifatini tasdiqllovchi boshqa xujjalari, berkitiladigan ishlari tasdiqlanganligi to'grisidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatlari konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'grisidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'grisidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarda nazarda tutilgan boshqa xujjalari;
  - qurilish maydoni – mazkur shartnomada (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomalar bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;
  - vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;
  - berkitiladigan ishlari – sifati va aniqligini keyingi ishlari bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'limgan keyinchalik bajariladigan ishlari va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlari;
  - shartnomalar narxini bo'lib chiqish – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnomalar bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

## II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnomalariga muvofiq Bog'ot tumani 32-son maktab binosini joriy ta'mirlash ko'zda tutilgan loyixa bo'yicha joriy ta'mirlash ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnomalar bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlarni qiymati barcha soliqlar (QQS bilan), yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda 3 300 000 (uch million uch yuz ming) so'mni tashkil etadi.
4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:
  - qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
  - ishlarni qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
  - ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.
5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtaсидаги shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

## IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnomalar bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:
  - barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnomalariga muvofiq topshirish;
  - qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;

- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnama mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'grisida xabardor qilish;
  - qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;
  - qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
  - mazkur shartnama bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'grisidagi dalolatnama imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunlari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruktsiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
  - qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;
  - qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlаридан бирин билан tavakkalchilik sug'urtasi to'grisida shartnama tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'lik xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lган va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.

9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlari bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitel'naya dokumentatsiya) to'lik xajmda taqdim qiladi.

10. Pudratchi mazkur shartnama bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

## **V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI**

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lган qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lган davrga dalolatnama bo'yicha Pudratchiga berish;
  - ishlari bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlari va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
  - Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
  - moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
  - Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lган ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
  - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan uz majburiyatlarni bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

## **VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.**

13. Shartnomada tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.

15. Ob'ektni 2022-yil oktabr oyida foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

## **VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR**

16. Shartnomada bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnomada bo'yicha ishlari umumiyligi joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu 990 000 (to'qqiz yuz to'qson ming) so'mni tashkil etadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maqsadli berilgan mablag'lar o'ttiz bank kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-illovalar)

19. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlari xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlari qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.

20. Pudratchining xisob rakamiga tushadigan mablaglar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lган materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.

21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'grisidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'grisidagi ma'lumotnoma xisob-varaq-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.

22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varaq-faktura» asos bo'ladi.

23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saqlaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

### **VIII. ISHLARНИ BAJARISH.**

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilanidigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnoma shartlariga va ish xujjalrliga muvofiqligini tekshiradi.

25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siksiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'lувchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjalrlardan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligesiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilar tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan boglik to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'grisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatdabar taraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

### **IX. YENGIB BO'LMDAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.**

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'riliшини muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

### **XI. KAFOLATLAR.**

34. Pudratchi:-barcha ishlarni to'lik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;- loyixa xujjalrliga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha

ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;
- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat iichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

## **XII. SHARTNOMANI BEKOR KILISH.**

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'lмаган sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'lмаган sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib quyilganda;
  - Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;
- qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilishbir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

37. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

38. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

39. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

## **XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.**

40. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'grisida» gi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 may 2003 yildagi PF-3240 sonli farmoni, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

41. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida jarima to'laydi;
- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablaglarini uch bank kunida sababsiz pudratchining xisob rakamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 0,4% miqdorida jarima to'laydi;
- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiqlashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul qilish, tasdiqlashdan bosh tortgan summaning 0,4% miqdorida jarima to'laydi;
- shartnoma shartlariga muvofiq tayyor xolda qabul qilish uchun taqdim qilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul qilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 0,4% miqdorida jarima to'laydi;

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi

va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa , majburiyatlarning bajarilmagan qismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% miqdorda penya to'laydi.
- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 0.5% miqdorida jarima to'laydi;
- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan qismining 0.5% miqdorida jarima to'laydi;
- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 0.5% miqdorida jarima to'laydi;
- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortikq bo'lмаган) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0.5% miqdorida jarima to'laydi.

43. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxona atamasi yoki maqomini noto'gri bersa va o'zgarganligi to'grisidagi ma'lumotni uch kalender kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tamonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.

44. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'gri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.

45. Tomonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.

46. Tomonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha aktseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

#### **XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.**

47. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladijan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Bog'ot tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi .

#### **XV. ALOXIDA SHARTLAR**

48. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lган tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari uz kuchini yo'qotadi.

49. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tamonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

50. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

51. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bulishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

52. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlarni yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishga xaqlidir.

53. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjatlariga Q.Q.S. to'grisida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.

54. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari qo'llaniladi.

55. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagan xamda Gaznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va bu shartnoma 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.

56. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 2 nusxada tuzildi.

#### **XVI. Tomonlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatları.**

57. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

58. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalari buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан таъсикланган, Хужжат коди: DR32768135  
 murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.  
 59. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrasjon xavf-xatar  
 bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrasjon holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa  
 tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin


## XVII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

### "PUDRATCHI"

### "BUYURTMACHI"

<b>«Yangi Proekt» MCHJ</b>	<b>Bog'ot tumani XTB</b>
Manzil: Bog'ot t. Nayman qishlog'i Tozabozor mahallasi	Manzil: Bog'ot tuman Bog'ot shaxarcha O'zbekiston ko'cha 11-uy
Tel./faks: 97 790 16 11	Tel. faks: 31-51-598
sh/h: 2020 8000 1051 0300 8001	sh/h: 100022860332047092100075113
STIR 306589274 OKONX	STIR 206961077 OKONX 97600 G'aznachilik bo'linmasi nomi Bog'ot tuman bo'yicha Gaznachilik bo'linmasi G'azna h/v 23402000300100001010
Bankning nomi: Ipoteka bank ATIB Tinchlik filiali MFO 00580	Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent MFO 00014 INN:201122919

Rahbar  \_\_\_\_\_ R. Bayjanov



Rahbar \_\_\_\_\_ G. Raximova



1- ILOVA

**Obyekt joriy ta'mirlashning moliyalashtirish grafigi**

**Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi 32 - maktab binosini joriy ta'mirlash  
 bo'nak (avans) to'lash va joriy moliyalashtirishni hisobga olgan holda**

Moliyalashti rish shartlari	Qurilish vaqt 2022 yil											
	Qurilish sanasi											
	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr
30 % xajmdagi avans									30			
70 % xajmda joriy moliyalashti rish										70		

Kredit yoki o'z mablag'laridan foydalanish – pudratchiga havola.



Tashkilot rahbarining imzosi: \_\_\_\_\_ G.Raximova

Tuzilgan sanasi: 30 sentabr 2022 yil.

2 – Illova

**Obyektning qurilish ishlarini bajarish grafigi**  
**Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi 32-maktab binosini joriy ta'mirlash**

T/p	Ishlar nomlanishi	Ishlarni boslash sanasi	Ishlarni tugatish sanasi


1	ФАСАД	30.09.2022	07.10.2022
2			
3			
4			
5			
6			

Izoh: Qurilishning umumiy jadvalida ishlarni umumiy dasturi (ob'ektning xususiyatlari hisobga olingan holda) va ularni bajarish muddatlari ko'rsatiladi. Qurilishning umumiy jadvali pudratchining ishlarni va ma'lum uchastkalarni belgilangan muddatda yakunlash va qurilayotgan ob'ektda xavfsiz va uzliksiz ishlar olib borish majburiyatiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.



Bog'ot tuman XTB mudiri: G.Raximova

«Yangi Proekt» MCHJ raxbari R.Bayjanov



Tuzilgan sanasi: 30 sentabr 2022 yil.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA № DR32768135**

- Loyihaning turi:** Shartnoma.
- Loyihaning nomi:** Buyurtmachi Bog‘ot tuman xalq ta’limi bo‘limi va pudratchi Yangi Proekt MCHJ o‘rtasida 32-son umumiy o‘rta ta’lim mifiktabini joriy ta’mirlash bo‘yicha.
- Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma’lumot:** Bog‘ot tuman xalq ta’limi bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan va 30.09.2022-yilda dasturga kiritilgan.

**X U L O S A:**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik xizmat  
ko‘rsatish markazi boshlig‘i**



**X.Saidov**  
01.10.2022-y

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 150192 на приобретение Bog'ot tumanidagi 32-son mактаб binosini joriy ta'mirlash**

Способ проведения электронный

Дата 26.09.2022

Время рассмотрения 26.09.2022 11:18

Закупочная комиссия Халк таълими булими марказлаштирилган молия-бухгалтерия хизматлари булими, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	XUDAYBERGANOV ODILBEK SHIXNAZAROVICH	Bog'ot tuman XTB Ma'naviy-ma'rifiy ishlар bo'yicha sho'ba rahbari	Bog'ot tuman Xalq ta'limi bo'lumi
<b>Секретарь комиссии</b>	RAHIMOV AZAMAT MATKARIMOVICH	Bog'ot tuman XTB Maxsus ta'mirlash eksplatatsiya xizmati bo'limi boshlig'i	Bog'ot tuman Xalq ta'limi bo'lumi
<b>Член комиссии</b>	ABDIKARIMOV IBODULLA QURBONBOYEVICH	Bog'ot tuman XTB Kasaba uyushmasi raisi	Bog'ot tuman Xalq ta'limi bo'lumi
<b>Член комиссии</b>	SAPAYEV ULUG'BEK OLLAYAROVICH	Bog'ot tuman XTB Kadrlar bo'yicha metodist	Bog'ot tuman Xalq ta'limi bo'lumi
<b>Член комиссии</b>	ATAJANOV MAXMUD QLICOVICH	Bog'ot tuman XTB Maxsus ta'mirlash eksplatatsiya xizmati kommunal xizmatlar bo'yicha inspektor	Bog'ot tuman Xalq ta'limi bo'lumi
<b>Член комиссии</b>	SAIDOV SULTONBOY JUMANIYOZOVICH	XTB MTEX mutaxasis	Bog'ot tuman Xalq ta'limi bo'lumi

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объятиению на специальном информационном портале от 26.09.2022 года № лота 150192.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	3 316 519.00
Стартовая сумма	3 316 519.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Xalqaro va milliy ISO sertifikatlari mavjudligi

Тип: Текстовое значение

Описание: Xalqaro va milliy ISO sertifikatlari mavjudligi (<http://sifat.standart.uz> saytida ro'yxatdan o'tgan Xalqaro ISO sertifikatining xar bittasiga 4 balldan, milliy ISO sertifikatlarining xar bittasiga 1 ta ball

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	15	3300000	15	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	15	3316519	12	Экспертная		

Критерий №2 Tanlovdagi ob'ektga o'xshash ob'ektlarda oxirgi uch yillik ish tajribasi

Тип: Текстовое значение

Описание: Buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar ro'yuxati, bajarilgan ishlarni qabul qilish topshirish dalolotnomasi sanasi va summasi jadval ko'rinishda buyurtmachi tashkilotlar tomonidan muxri bilan tasdiqlangan va imzolangan ko'rinishda ilova qilinadi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	10	3300000	10	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	10	3316519	9	Экспертная		

Критерий №3 Ishlarni bajarish muddati va baxtsiz xodisalar bo'lgan vaziyatlarda ishchi xodimlarning qurilish obektida belgilangan tartibda ishlarning tashkil qilinishi

Тип: Текстовое значение

Описание: Ishlarni bajarish muddati ko'rsatilgan kafolat xati , Baxtsiz xodisalar bo'lgan vaziyatlarda ishchi xodimlarning xayoti sug'urtalanganligi (sug'urta ilova qilish shart), ishchilarning qurilish obektida belgilangan tartibda ish yo'riqnomasi muxirlangan tartibda bo'lishi shart

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	5	3300000	5	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	5	3316519	4	Экспертная		

Критерий №4 Qurilish maydonini ko'rganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma

Тип: Текстовое значение

Описание: Buyurtmachi tomonidan berkitilgan ma'sul xodim bilan birlgilikda ish xajmi va xususiyatini to'liq o'rganganligi (belgilangan shaklda) loyiha - smeta xujjalari mos kelishi to'g'risida ma'lumot ma'sul xodim va oferant vakili imzosi va buyurtmachi tashkilot tasdiqlagan bo'lishi shart.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	5	3300000	5	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	5	3316519	4	Экспертная		

Критерий №5 Tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab

Тип: Текстовое значение

Описание: Tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	5	3300000	5	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	5	3316519	5	Экспертная		

Критерий №6 Moliyaviy ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumot. 2021 yil uchun yillik balans va moliyaviy natijalar va foyda solig'i hisobotlari

Тип: Текстовое значение

Описание: Moliyaviy ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumot. 2021 yil uchun yillik balans va moliyaviy natijalar va foyda solig'i hisobotlari . Ob'ektning buyurtmachi belgilangan boshlang'ich narxning 50% gacha miqdordagi aylanma mablag'lar mavjudligi xizmat qiluvchi bank tomonidan tasdiqlangan hamda shu sanaga obektning boshlang'ich narxning kamida 10 % mablag'i hisob raqamda mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnomada asosida baholanadi ma'lumotnomada tanlov e'lon qilingandan keyin olingan bo'lishi shart

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	10	3300000	10	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	10	3316519	10	Экспертная		

Критерий №7 Muxandis texnik, sifat nazorati va mexnat muxofasazi lavozimida ishlaydigan oliy malumotli xodimlar mavjudligi

Тип: Текстовое значение

Описание: Muxandis texnik, sifat nazorati va mexnat muxofasazi lavozimida ishlaydigan oliy malumotli xodimlar mavjudligi xar bitta oliy malumotli mutaxasis xodimga 1 ta baldan ((maksimal 5 bal) ishchi xodim ishtirokchi tashkilotning my.mehnat.uz saytidagi mexnat daftarchasidan kuchirma, my.mehnat.uz saytidan obektivka kuchirmasi yoki diplomi nusxasi yuklansin))

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	5	3300000	5	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	5	3316519	5	Экспертная		

**Критерий №8** Tashkilot rahbarining mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga egaligi, Ishchi va xodimlari mutaxasisligi va ish tajribasi

**Тип:** Текстовое значение

**Описание:** Tashkilot rahbarining buyrugi, qurilish sohasidaga ish staji , ma'lumoti . Raxbar oliy ma'lumotli , mutaxasisligi qurulish sohasiga doir ma'lumotga ega bo'lishi, staji kamida 3-yil bo'lishi tavsiya qilinadi , Ishchi xodimlar buyrugi ma'lumoti, mutaxasislarning qurilish soxasiga mos kelishi , mutaxasisligi qurilishdagi ish stajlari my. mehnat.uz sayti bilan mos kelishi, Tuman soliq ma'lumonomasi asosida. ishchi xodim ishtirokchi tashkilotning my.mehnat.uz saytidagi mexnat daftarchasidan kuchirma, my.mehnat.uz saytidan obektivka kuchirmasi yoki diplomi nusxasi yuklansin

**Обязательность:** Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	5	3300000	5	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	5	3316519	4	Экспертная		

**Критерий №9** Qurilish soxasidagi reytingi

**Тип:** Текстовое значение

**Описание:** Qurilish soxasidagi reytingi uchun (maksimal 10 ball) (<https://reytmg.mc.uz> saytida faqat Umumqurilishdagi reytingi hisobga olinadi)

**Обязательность:** Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	10	3300000	10	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	10	3316519	10	Экспертная		

**Критерий №10** Oferantning qurilish ob'ektda ishlatiladigan qurilish materiallari mavjudligi va qurilishda ishlatiladigan moddiy texnikasi , ishlab chiqarish bazasi mavjudligi, omborxonasi mavjudligi(Kuchmas mulk obekitiga bo'lgan xukuklarini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida Davlat reeistiridan ko'chirma QR kodi bilan) hamda qurilish materallari sertifikati

**Тип:** Текстовое значение

**Описание:** Oferantning qurilish ob'ektda ishlatiladigan qurilish materiallari mavjudligi va qurilishda ishlatiladigan texnikasi (rasmlari va egalik huquqini tasdiqlovchi xujjat bilan) , ishlab chiqarish bazasi mavjudligi, omborxonasi mavjudligi(Kuchmas mulk obekitiga bo'lgan xukuklarini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'grisida Davlat reeistiridan ko'chirma QR kodi bilan) hamda kurilish materallari sertifikati

**Обязательность:** Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	15	3300000	15	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	15	3316519	12	Экспертная		

**Критерий №11** Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida shubxali korxonalar ro'yxatiga kiritilmaganligi; qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lsa, uning guvoxnomasi faolligi.E'lon jarayonida bo'lgan davr xolatiga soliq qarzdarligi mayjud emasligi to'g'risidagi repository.soliq.uz dasturidan olingan shtrix kodli ma'lumot.Bankrotlik xolatida emasligi to'g'risidagi malumot

Тип: Текстовое значение

Описание: Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida shubxali korxonalar ro'yxatiga kiritilmaganligi; qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lsa, uning guvoxnomasi faolligi.E'lon jarayonida bo'lgan davr xolatiga soliq qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risidagi repository.soliq.uz dasturidan olingan shtrix kodli ma'lumot.Bankrotlik xolatida emasligi to'g'risidagi malumot. Bank krediti bo'lsa muddati o'tkan qarzdorligi yo'qligi. insofsiz ijrochilar reestrda bo'lmasligi.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	15	3300000	15	Экспертная		
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	15	3316519	14	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	3 316 519.00	3 316 519.00 UZS	3 316 519.00	00.00	3 316 519.00	20.09.2022 08:42:10	9.95019
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	3 316 519.00	3 300 000.00 UZS	3 300 000.00	00.00	3 300 000.00	20.09.2022 08:36:57	10

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
<b>TALABA OMAD SERVIS MCHJ</b>	80.1	9.95019	90.05019
<b>ООО YANGI PROEKT</b>	90	10	100

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 150192 от 26.09.2022 года на приобретение Bog'ot tumanidagi 32-son maktab binosini joriy ta'mirlash определила победителем:

ООО YANGI PROEKT  
306589274

и резервный исполнитель: TALABA OMAD SERVIS MCHJ (303439390)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	XUDAYBERGANOV ODILBEK SHIXNAZAROVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ABDIKARIMOV IBODULLA QURBONBOYEVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	SAPAYEV ULUG'BEK OLLAYAROVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ATAJANOV MAXMUD QLICOVICH	Согласен	

**Член комиссии**

SAIDOV SULTONBOY JUMANIYOZOVICH

Согласен

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП